



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA JAMOAVIY BOSHQARISH TASHKILOTLARINING MAQOM, FUNKSIYA VA VAZIFALARI

Eshonqulov Soyibjon Sayidjon o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti Intellektual mulk va axborot
texnologiyalari huquqi yo‘nalishi magistranti

Kirish

O‘zbekiston Respublikasida jamoaviy boshqarish tashkilotlari davlat boshqaruvi tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida zamonaviy jamiyatning ijtimoiy va huquqiy rivojlanishida alohida o‘rin tutadi. Ushbu tashkilotlar davlat organlari va fuqarolar o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajarib, o‘zini o‘zi boshqarish prinsiplarini amalga oshirish, fuqarolar, ayniqsa mualliflar va huquq egalari huquqlari va erkinliklarini ta‘minlash hamda davlat siyosatini samarali yuritishda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va milliy qonunchilikka asoslangan holda tashkil etilgan bu institutlar mustaqillik, shaffoflik va jamoatchilik ishtirokini ta‘minlash orqali demokratik boshqaruvni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu maqola jamoaviy boshqarish tashkilotlarining huquqiy maqomi, funksiyalari va vazifalarini tahlil qilish bilan birga, ularning O‘zbekistonning boshqaruv tizimidagi o‘rni va ahamiyatini kengroq yoritishga qaratilgan.

Yurtimizda ham mualliflik huquqini himoya qilish tizimi asta-sekin takomillashmoqda. Chunki, 2023-yil 5-mayda kuchga kirgan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida ham har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi.¹

Mualliflik jamiyatlari - bu mualliflarning (yozuvchi, musiqachi, rassom va boshqalar) ijodiy asarlarini boshqarish va himoya qilish bilan shug‘ullanadigan tashkilotlar. Ular mualliflar va ularning asarlaridan foydalanuvchilar (masalan, radiolar, kafelar, filmlar) o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajaradi. Mualliflik jamiyati o‘z ishini boshlash uchun avval muallif bilan shartnoma tuzadi. Bu shartnoma orqali muallif o‘z asarining huquqlarini (masalan, musiqani ijro etish yoki kitobni chop etish huquqi) jamiyatga ishonib topshiradi. Bu jarayon muallifga o‘z asarini

¹ <https://lex.uz/docs/-6445145#-6445632>



boshqarish va himoya qilishda yordam beradi. Jamiyat asarni ishlatmoqchi bo‘lgan odamlar yoki kompaniyalar bilan shartnoma tuzadi. Masalan, bir kafe muallifning musiqasini ijro etmoqchi bo‘lsa, jamiyat unga ruxsatnoma (litsenziya) beradi va buning evaziga haq oladi. Agar kimdir ruxsatsiz asardan foydalansa, jamiyat sud orqali muallifning huquqlarini himoya qiladi.² Bu holda, sud jarayonida muallifning o‘zi ishtirok etishi shart emas, lekin u xohlasa, qatnashishi mumkin. Foydalanuvchilardan yig‘ilgan pullardan jamiyat o‘z xizmatlari uchun bir qismini (komissiya) ushlab qoladi, qolganini esa muallifga beradi.

Asosiy qism

Yurtimizda hozirda San'atkor, ijodkor va ijrochilarning mualliflik huquqlarini himoya qilish palatasi va O‘zbekiston Respublikasi Mualliflik va Turdosh huquqlarni himoya qilish jamiyati asosiy faoliyat yuritayotgan jamoaviy boshqarish tashkilotlari hisoblanadi. Masalan, San'atkor, ijodkor va ijrochilarning mualliflik huquqlarini himoya qilish palatasi(SIIP) 2021-yil 28-yanvarda tashkil etilgan. Palata tashkil etilishidan avval O‘zbekiston tomonidan ham mahalliy, ham xalqaro miqyosdagi bir qator qununchilik choralari ko‘rib chiqilgandi.³ O‘zbekiston Respublikasi San'atkor, ijodkor va ijrochilarning mualliflik huquqlarini himoya qilish palatasi ning asosiy maqsadlari:

- mualliflar, san'atkorlar va ijrochilar (huquq egalari) hamda ularning vorislarining fan, adabiyot, san'at va madaniyat sohasidagi mulkiy huquqlarini himoya qilish, ularning huquq va manfaatlarini respublikada va undan tashqarida amalga oshirilishini ta'minlash;
- amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq o‘z mulkiy huquqlarini yakka tartibda amalga oshirishga qodir bo‘lmagan huquq egalarining (vorislarning) mulkiy huquqlarini davlat tomonidan boshqarilishiga ko‘maklashish;
- huquq egalariga yoki vorislarga fan, adabiyot va san'at asarlaridan individual asosda foydalanish huquqini olishda yordam ko‘rsatish;
- musiqa, adabiyot va san'at sohalarining O‘zbekiston Respublikasi uchun ahamiyatini aks ettiruvchi milliy statistik ma'lumotlarni to‘plash va shakllantirish;

² Yakubova.I.B. Xalqaro intellektual mulk huquqi. – TOSHKENT – 2023.

³ <https://siip.uz/uzb/about>



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th July, 2025

- asarni ro'yxatdan o'tkazish va mualliflik huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni olishning oddiy, tez, to'liq va xavfsiz usulini taqdim etish;
- mualliflik huquqi egalari ularning intellektual huquqlarini amalga oshirish va himoya qilishda yordam berish;
- O'zbekiston Respublikasida qaroqchilikning barcha ko'rinishlariga qarshi kurashish hisoblanadi.

Shuningdek, Mualliflar va ijrochilarning O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq haq olish huquqlarini amalga oshirish va Fonogramma ishlab chiqaruvchilarning O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq haq olish huquqlarini amalga oshirish SIIP faoliyatining asosiy doirasi hisoblanadi.

Yana, O'zbekiston Respublikasi mualliflik va turdosh huquqlarni himoya qilish Jamiyati, San'atkor, ijodkor va ijrochilarning mualliflik huquqlarini himoya qilish Palatasi, O'zbekiston mualliflik va turdosh huquq egalari jamoat birlashmasi, ⁴O'zbekiston mualliflar va ijrochilar gildiyasi jamoat birlashmasi, Mualliflarning mulkiy huquqlarini himoya qiluvchi nodavlat notijorat tashkiloti jamoat birlashmasi, O'zbekiston huquq egalari palatasi, O'zbekiston Kino sanoati vakillari uyushmasi mavjud, lekin faqatgina ulardan uchasi hozir faoliyat yuritmoqda.

Mualliflik huquqini jamoaviy boshqarish bo'yicha tashkilotlarning **asosiy vazifalari va funksiyalari** O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunda ⁵belgilanib qo'yilgan va ular quyidagilardir:

- 1) haq to'lash bilan bir vaqtda huquq egalari ularning huquqlaridan foydalanilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hisobotlarni taqdim etishi;
- 2) ushbu Qonun 58-moddasi birinchi qismining beshinchi xatboshisi qoidalariga muvofiq yig'ilgan haqdan faqat huquq egalari taqsimlash va to'lash uchun foydalanishi. Bunda tashkilot yig'ilgan haqdan bunday haqni yig'ish, taqsimlash va to'lash bo'yicha o'zining haqiqiy xarajatlarini qoplash summalarini, shuningdek shu tashkilot tomonidan o'zi qaysi huquq egalari nomidan ish ko'rayotgan bo'lsa, shu huquq egalari roziligi bilan va ularning manfaatlarini

⁴ <https://uzavtor.uz/community>

⁵ "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi 20.07.2006-yildagi 42-son Qonun



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th July, 2025

ko‘zlab tashkil etiladigan maxsus fondlarga yo‘naltiriladigan summalarni chegirib tashlashga haqlidir;

3) yig‘ilgan haq summalarini, ushbu qismning uchinchi xatboshisida nazarda tutilgan summalarni chegirib tashlagan holda, asarlardan va turdosh huquqlar ob‘yektlaridan amalda foydalanilishiga mutanosib ravishda taqsimlashi va muntazam to‘lab borishi;

4) yig‘ilgan haqni bevosita huquq egalariga taqsimlashi hamda to‘lashi va (yoki) uni huquq egalariga taqsimlash va to‘lash uchun tegishli toifadagi huquq egalarining manfaatlarini ifodalovchi boshqa tashkilotlarga shu tashkilotlar bilan tuzilgan kelishuvlar asosida o‘tkazishi;

5) talab qilib olinmagan haqni huquq egalarini qidirish choralarini ko‘rgan holda, u tashkilot hisobiga tushgan sanadan e‘tiboran uch yil mobaynida saqlab turishi shart. Ko‘rsatilgan muddat tugagach, tashkilot talab qilib olinmagan haqni taqsimlanadigan summalarga qo‘shib yuborishga yoki uni tashkilot o‘zi qaysi huquq egalarining nomidan ish ko‘rayotgan bo‘lsa, faqat shu huquq egalarining roziligi bilan va ularning manfaatlarini ko‘zlab boshqa maqsadlarga qaratishga haqlidir.

Tashkilotga ushbu Qonun 58-moddasi birinchi qismining beshinchi xatboshisida nazarda tutilgan haqni yig‘ishga nisbatan vakolatlar bermagan huquq egalari amalga oshirilgan taqsimlashga muvofiq ularga tegishli haqning to‘lanishini, shuningdek o‘z asarlarini yoki turdosh huquqlar ob‘yektlarini bu tashkilot tomonidan foydalanuvchilarga taqdim etilgan shartnomalardan chiqarib tashlashni tashkilotdan talab qilishga haqlidir. Mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilot zimmasida huquq egalari bilan tuzilgan shartnomalar asosida va qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin. Tashkilotning asosiy funksiyalarining mazmuni kelajakda mualliflik huquqini jamoaviy boshqarish bo‘yicha tashkilotlarning asosiy faoliyatini huquqiy o‘rganish jarayonida ochib beriladi.

Endi mualliflik huquqini jamoaviy boshqarish bo‘yicha tashkilotning “boshqa faoliyati” nimadan iborat ekanligiga to‘xtalib o‘tish kerak. Mualliflik huquqini jamoaviy boshqarishdan tashqari, butun dunyo bo‘ylab ko‘plab mualliflik jamiyatlari o‘zlarining asosiy ishlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan boshqa faoliyat bilan shug‘ullanadilar. Bu, birinchi navbatda, milliy repertuarni targ‘ib



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th July, 2025

qilish bo'yicha agentlik faoliyati, milliy madaniyatni moliyaviy qo'llab-quvvatlash turli shakllarda bo'lishi mumkin (tanlovlar tashkil etish, grantlar tashkil etish va boshqalar). Ushbu turdagi ish ularning faoliyatining asosiy maqsadi - mualliflik huquqini jamoaviy boshqarish bilan zid kelmaydi, deb aytiladi. Bunday holda, xarajatlar undirilgan mukofot hisobiga emas, balki asarni targ'ib qilishdan manfaatdor bo'lgan mualliflik huquqi egalarining komissiyalari yoki boshqa resurslar (masalan, xususiy yoki davlat subsidiyalari) hisobidan to'lanadi

O'zbekiston Respublikasi huquqlarni jamoaviy boshqarish tashkilotlari tijorat faoliyati bilan shug'ullanishga haqli emas (Qonunning 56-moddasi 2-bandida belgilab qo'yilgan). Amaldagi qonunchilikning ushbu qoidasi hech qanday istisnolarga yo'l qo'ymaydi. Jamoaviy boshqaruv tashkilotining asosiy funksiyalari tijorat faoliyat bilan bevosita bog'liq bo'lsa ham, u bunday faoliyatni amalga oshirishga haqli emas. O'zbekiston Respublikasi FKning 97-moddasining 2-qismiga binoan, mutlaq huquq ob'yekti bo'lgan intellektual faoliyat natijalari va o'ziga xos vositalaridan uchinchi shaxslar huquq egasining ruxsati bilangina foydalanishlari mumkin. Biroq O'zbekiston Respublikasi "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunining 58-moddasiga binoan, Mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilot o'zi qaysi huquq egalarining nomidan ish ko'rayotgan bo'lsa, shu huquq egalarining nomidan va ulardan olingan vakolatlar asosida quyidagi huquqlarga ega bo'ladi:

- to'lanadigan haq miqdorini va shartnomalarning tuzilishiga doir boshqa shartlarni foydalanuvchilar bilan kelishib olish;
- bunday tashkilot boshqarayotgan huquqlardan foydalanish uchun foydalanuvchilar bilan shartnomalar tuzish;
- tashkilot to'lanadigan haqni yig'ish bilan ushbu Qonunda nazarda tutilgan hollarda shartnoma tuzmasdan shug'ullangan taqdirda, bunday haq miqdorini foydalanuvchilar bilan kelishib olish;
- shartnomalarda nazarda tutilgan haqni va (yoki) ushbu qismning to'rtinchi xatboshisida nazarda tutilgan haqni yig'ish, taqsimlash va to'lash;
- bunday tashkilot o'zi boshqarayotgan huquqlarni himoya qilish uchun zarur bo'ladigan har qanday yuridik harakatlarni bajarish;



• shunday tashkilot tomonidan belgilangan tartibda asarlarni va (yoki) turdosh huquqlar ob'yektlarini, shuningdek, asarlarga va (yoki) turdosh huquqlar ob'yektlariga bo'lgan huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi shartnomalarni ro'yxatga olishni va (yoki) saqlashga topshirishni amalga oshirish. Mualliflik huquqi egasining roziligisiz ham amalga oshirish mumkin bo'lgan, mualliflik huquqini jamoaviy boshqarish imkoniyatini yaratadigan qoidalar Qonunda nazarda tutilgan istisno bo'lib, u ma'lum darajada mualliflik huquqi egalarining manfaatlarini buzishi ham mumkin, chunki muallifning mualliflik huquqlari mutlaqliq xususiyatiga egadir.

Xulosa

Jamoaviy boshqarish tashkilotlari O'zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvi tizimini mustahkamlash va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ular davlat siyosatini amalga oshirishda, fuqarolar huquqlari va erkinliklarini ta'minlashda, shuningdek, davlat organlari va jamoatchilik o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishda ko'prik vazifasini bajaradi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunchiligiga asoslangan holda, bu tashkilotlar mustaqillik va o'zini o'zi boshqarish prinsiplariga rioya qilgan holda faoliyat yuritadi. Ularning faoliyati nafaqat davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishga, balki jamiyatning ijtimoiy, madaniy va huquqiy rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Mualliflik va Turdosh huquqlarni himoya qilish jamiyatining rasmiy saytiga kirganda faqatgina jamiyatning rasmiy binosiga kelish orqali shartnoma tuzish mumkinligi keltirilgan. Bu esa mualliflarning vaqtini ham olishi mumkin. Va yuqoridagilardan kelib chiqib milliy qonunchiligizda belgilangan jamoaviy boshqarish tashkilotlarini faoliyatini yanada rivojlantirish uchun quyidagicha yana qisqacha xulosa va takliflarni keltirmoqchimiz:

1. Jamoat tashkilotlarining faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash maqsadida mualliflik haqini yig'ish va taqsimlash jarayonlarini to'liq elektronlashtirish maqsadga muvofiqlini ta'minlash ham jamoaviy boshqarish tashkilotlari o'rtasida raqobatni, tashkilotni rivojlantirishga undashi mumkin. Yana qog'ozbozlik, ortiqcha vaqtni yutqamaslikka, mualliflarning, huquq egalarining ham



huquqiy savodxonlik va texnologiya sohasidagi bilimlarini oshirishga ham yordam beradi.

2. O‘zbekistonda jamoaviy boshqaruv sohasidagi asosiy muammolar, birinchi navbatda, mualliflik jamiyatlarining tashkil etilishi va faoliyati bo‘yicha aniq mexanizmning mavjud emasligi, shuningdek, ularning bir qator muhim sohalarda asarlar va obyektlardan foydalanishda yetarli darajada samarali ishlamasligi bilan bog‘liq. Yurtimizda faoliyat ko‘rsatayotgan jamoaviy boshqarish tashkilotlarining faoliyatini, ochiqligini ta‘minlash bo‘yicha hammaga ochiq bo‘lgan, O‘zbekiston bo‘ylab umumiy bo‘lgan jamoaviy boshqaruv tashkilotlarining reestrini shakllantirish. Chunki bizda faqatgina 7 ta jamoaviy boshqarish tashkilotlari ro‘yxatdan o‘tgan, lekin hozirda faqatgina San'atkor, ijodkor va ijrochilarning mualliflik huquqlarini himoya qilish palatasi va O‘zbekiston Respublikasi Mualliflik va Turdosh huquqlarni himoya qilish jamiyati doimiy faoliyat yuritadi xolos. Ularning platformalarini takomillashtirish hamda onlayn tarzda a‘zo bo‘lish imkoniyatini yaratish lozim.

3. “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi 20.07.2006-yildagi 42-son qonunining 56-moddasiga binoan Mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaradigan tashkilotlar notijorat tashkilotlari hisoblanadi va o‘z ustavi asosida faoliyat ko‘rsatishi belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Mualliflik va turdosh huquqlarni himoya qilish jamiyati yurtimizdagi jamoaviy boshqarish tashkilotiga misol bo‘ladi va jamiyatning ustavining birinchi bob 1.2 bandida Jamiyat nodavlat notijorat tashkilot bo‘lib, asosiy faoliyatidan daromad olishni ko‘zlamaydi deya keltirilgan. Tashkilot tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullana olmasligi sababli bu pullar ularning foydasi deb hisoblanmaydi (Mualliflik qonunining 56-moddasi). Shuning uchun ham bir tarafdin muallif va jamiyat o‘rtasida tuziladigan shartnomani haq evaziga tuzilgan shartnoma deb ham qarash mumkin. Ushbu tushunmovchilikni oldini olish uchun quyidagicha to‘ldirish taklif etiladi:

“Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi qonunning 31-moddasiga binoan Nodavlat notijorat tashkiloti qonunchilikka muvofiq o‘z ustav maqsadlariga mos keladigan doiralarda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi mumkinligi belgilangan. Shuningdek, jamiyatining ustavining 2.5 bandida hama Jamiyat o‘zining oldiga qo‘ygan maqsadlariga xizmat qilgan taqdirda daromad keltiradigan



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th July, 2025

faoliyatni, shu jumladan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishi mumkinligi belgilangan. Demak, “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi 20.07.2006-yildagi 42-son qonunining IV bob 56-moddasi ikkinchi qismdan keyin quyidagi jumlani qo‘shib quyish lozim: Mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaradigan tashkilotlar qonunchilikka muvofiq o‘z ustav maqsadlariga mos keladigan doiralarda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1 O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.
- 2 <https://lex.uz/docs/-6445145#-6445632>
- 3 Yakubova.I.B. Xalqaro intellektual mulk huquqi. – TOSHKENT – 2023.
- 4 <https://siip.uz/uzb/about>
- 5 <https://uzavtor.uz/community>
- 6 “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi 20.07.2006-yildagi 42-son Qonun